

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



TASDIQLAYMAN"

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

O.Sh.Bazarov

2024 yil

Ro'yhatga olindi № 05/01/076

"14 " iyun 2024 yil

# STATISTIKA

## FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	- Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	- Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60411700	- Logistika (agrologistika)

Fan/modul kodi Stat 205	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	Kreditlar 4		
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Statistika	60	60	120	
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida statistikaning nazariy, uslubiy va amaliy masalalarini har taraflama o'rgatish, bozor hodisalari o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini ochish uchun korrelyatsion-regression tahlilni qo'llay olish, statistik kuzatish natijasida olingan ma'lumotlarni kompyuter dasturlari yordamida yechish, olingan natijalar bo'yicha xulosa va takliflar qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifalari</b> – talabalarda statistikaning predmeti va metodi, uning ahamiyati va roli haqida chuqur bilimga ega bo'lish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi sodir bo'ladigan hodisalar to'g'risidagi ilmiy va tajribaviy gipotezalarni statistik tekshirish, statistika amaliyotida qo'llaniladigan hisobot shakllarini to'ldirish to'g'risida tasavvurga ega bo'lishni ta'minlash va ushbu sohada vujudga kelishi mumkin bo'lgan amaliy muammolarni yechishda statistik usullar hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishni o'rgatishdan iborat.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Statistika faniga kirish, fanning predmeti va uslubi</b></p> <p>Statistika predmeti. Statistikacha tafakkur, ehtimollar, katta sonlar qonuni, statistik qonuniyatlar. Hozirgi zamon O'zbekiston davlat statistikasi va halqaro statistika. Statistik ko'rsatkichlarning mazmuni va ahamiyati. Statistik jadvallar. Jadval turlari va tuzish qoidalari. Statistik tasniflashning mohiyati va ahamiyati. Statistik to'plam mazmuni va xususiyatlari. O'rtacha miqdorlarning mohiyati va ahamiyati. Variatsiya mohiyati va uni o'lchash zaruriyati. Variatsion kenglik. Tanlanma kuzatish haqida umumiyl tushuncha. O'zaro bog'lanishlar haqida tushuncha va ularning turlari. Dinamika qatorlari, ularning tarkibiy unsurlari va turlari. Indeks so'zining lug'aviy ma'nosi va qo'llanishi. Statistikada balans usulining mohiyati va ahamiyati. O'zbekiston milliy hisoblar tizimi – iqtisodiy statistikaning uslubiy negizi. Aholi statistikasi. Mehnat bozori statistikasi. Milliy boylik statistikasi. Yalpi ichki mahsulot statistikasi. Milliy daromad va milliy</p>				

hisoblar tizimidagi boshqa daromad ko'rsatkichlari. Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi. Moliya-kredit tizimi statistikasi. Aholi turmush darajasi statistikasi.

## **2-mavzu. Statistik kuzatish uslubiyati, statistik jamlash va guruhlash**

Hozirgi zamон O'zbekiston davlat statistikasi va halqaro statistika. Statistik kuzatish mohiyati va uning oldiga qo'yiladigan talablar, kuzatish obyekti va subyekti. Statistik kuzatishni tayyorlash uslubiyati. Statistik kuzatish turlari. Hisobot, maxsus tashkil etiladigan kuzatish, biznes - tekshirishlar va ro'yxatlar. Statistik kuzatish xatolari va ularni aniqlash yo'llari.

Statistik jamlashning mazmuni va uni masalalari. Jamlash tushunchasini tor va keng ma'nolarda talqin etish. Statistik guruhlashning mohiyati va uni ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarini tahlil qilishda ahamiyati. Guruhlash turlari. Atributiv va miqdoriy guruhlash. Oddiy guruhlash. Ko'p o'lchovli guruhlash va uning turlari: kombinatsion guruhlash; irearxik guruhlash. Guruhlash tuzish qoidalari. Guruhlash belgisi. Guruhlar soni. Guruhlar oralig'i. Statistik tasniflash va uning o'ziga xos xususiyatlari. Statistik to'plam tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganishda guruhlash usulini qo'llash ahamiyati. Taqsimot qatorining mohiyati va uni tarkibiy unsurlari. Taqsimot qatorlari turlari. Atributiv va variatsion qatorlar. Variatsion qatorlar turlari: diskret va oraliqli qatorlar. Taqsimot qatorlari grafiklari: histogramma; poligon; kumulyata; ogiva.

## **3-mavzu. Statistik jadval, grafiklar va ko'rsatkichlar**

Statistik jadvallar. Jadval turlari va ularni tuzish qoidalari. Grafiklar haqida tushuncha, statistikada ularning roli va ahamiyati. Grafiklarning turlari va asosiy elementlari. Chiziqli va yassi diagrammalar. Sektorli diagrammalar. Kvadrat va doira shakldagi diagrammalar. Tasvirli (suratli) diagrammalar. Statistik xaritalar. Iqtisodiy jarayonlar rivojlanishini jadvallar va grafiklarda ifodalash. Asosiy tushuncha va atamalar.

Statistik ko'rsatkichlarning mazmuni va ahamiyati. Statistik ko'rsatkichlarning turlari va tasnifi. Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar. Nisbiy ko'rsatkichlarning tasnifi. Nisbiy miqdorlar orasidagi bog'lanishlar. Milliy mahsulot va daromadlarning doiraviy aylanmasi -makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimining asosi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi. Bozor iqtisodiyoti jarayonlarini tahlil qilishda qo'llaniladigan halqaro standart ko'rsatkichlar.

## **4-mavzu. O'rtacha miqdorlar va variatsiya ko'rsatkichlari**

O'rtacha miqdorlarning mohiyati va ahamiyati. O'rtacha miqdor turlari va ularni hisoblash tartibi. O'rtacha arifmetik xossalari. O'rtacha arifmetikni "shartli moment" usulida hisoblash. Iqtisodiy hodisalarini o'rganishda arifmetik o'rtachani qo'llash. O'rtacha geometrik miqdor. Nisbiy o'zgarishlar uchun o'rtacha geometrikni aniqlash. Nisbiy o'zgarish asosida o'rtacha geometric darajasini aniqlash. O'rtacha arifmetikning matematik xossalari. O'rtacha garmonik. O'rtacha kvadratik. O'rtacha kub. Darajali o'rtachalar. Tuzilmaviy o'rtacha ko'rsatkichlar. Mediana. Moda. Kvantililar.

Variatsiyaning mohiyati va uni o'lhash zaruriyati. Variatsion kenglik. O'rtachasi kvadrat tafovutning (dispersiya) va o'rtacha kvadratik tafovut. Dispersiya va o'rtacha kvadratik tafovut xossalari. Dispersiya va o'rtacha kvadratik tafovutni hisoblashning soddalashtirilgan usullari. Dispersiyalarni qo'shish qoidasi va uni bozor hodisalarini tahlil qilishda qo'llash. Muqobil (alternativ) belgi dispersiyasi. O'rtacha mutlaq tafovut. Kvartil tafovuti va nimkvartil kenglik. Variatsiya koeffitsiyentlari. Asimmetriya ko'rsatkichlari. Eksess me'yorlari. Variatsiya ko'rsatkichlarining optimal chegaralari. Konsentratsiyalanish, ixtisoslashish va monopollashtirish ko'rsatkichlari. Dispersion tahlil.

### **5-mavzu. Tanlanma kuzatish, korrelyatsion va regression tahlil**

Tanlanma kuzatish haqida umumiy tushuncha. Tanlanma reprezentativligi va uni ta'minlaydigan tanlash usullari. Tanlanma kuzatish xatolarini aniqlash. Tanlanmaning zaruriy miqdorini aniqlash. Tanlanma kuzatiish ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish. Gipotezalarni statistik tekshirish asoslari. Taqsimot qonuni haqidagi gipotezani baholash. O'rtacha miqdorlar haqidagi gipotezalarni tekshirish.

O'zaro bog'lanishlar haqida tushuncha va ularning turlari. Regression va korrelyatsion tahlil vazifalari va uning bosqichlari. Boshlang'ich ma'lumotlar asosida to'g'ri chiziqli regressiya tenglamasi va korrelyatsiya koeffitsiyentini aniqlash. Ranglar korrelyatsiya koeffitsiyenti. Guruhlangan ma'lumotlar asosida to'g'ri chiziqli regressiya tenglamasini aniqlash. Korrelyatsion jadval. Egri chiziqli regressiya tenglamalarini aniqlash. Bir omilli regressiya tenglamasini baholash va tahlil qilish. Ko'p o'lchovli korrelyatsiya. Muhim va mohiyatli omillarni tanlash. Ko'p omilli chiziqli regressiya tenglamasini aniqlash. Ko'p o'lchovli va xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari. Ko'p o'lchovli regressiya tenglamalarini baholash va tahlil qilish. Bir va ko'p omilli bog'lanish natijalarini tarkibiy qismlarga ajratish usullari. Korrelyatsion – regression modellardan iqtisodiy tahlil va istiqbolni baholashda foydalanish yo'llari. Omillar tahlili va bosh komponentlar usuli. Atributiv belgilari orasidagi bog'lanishlarni o'lhash usullari.

### **6-mavzu. Dinamikani statistik o'rghanish usullari va iqtisodiy indekslar**

Dinamika qatorlari, ularning tarkibiy unsurlari va turlari. Dinamika qatorlarini tahlil qilish ko'rsatkichlari. Dinamika o'rtacha ko'rsatkichlarini hisoblash yo'llari. Dinamika tendensiyalarini aniqlash usullari. Uzoq muddatli (asriy) rivojlanish tendensiyalarini aniqlash usullari. Davriy yoki siklik tebranishlarni o'rghanish usullari. Mavsumiy tebranishlarni o'rghanish usullari. Dinamika qatorlarida avtokorrelyatsiyani aniqlash usullari. Dinamika qatorlarida lag aniqlash usullari. Dinamika qatorlari korrelyatsiyasini o'lhash usullari.

Indeks so'zining lug'aviy ma'nosi va qo'llanishi. Iqtisodiy indekslar haqida umumiy tushuncha (mohiyati, ahamiyati va funksiyalari). Indekslarning turlari va tasnifi. Yakka indekslar. Zanjirsimon, o'zgarmas asosli va o'zgaruvchan asosli yakka indekslar. Yakka indekslarning xossalari. Vaznsiz umumiy indekslar.

Vaznli o‘rtacha indekslar. Bazis vaznli agregat indekslar. Laspeyres indekslari. Joriy vaznli agregat indekslar. Paashe indekslari. Laspeyres va Paashe indekslarining qiyosiy tahlili. Boshqa shakldagi agregat indekslar. Guruhiy indekslar va ularni iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda qo‘llash. O‘zaro bog‘langan indekslar. Sanoat mahsuloti indekslari. Yalpi ichki mahsulot jismoniy hajmi indeksi va deflyatori. Iste’mol narxlari indeksi. Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlari indeksi.

### **7-mavzu. O‘zbekiston milliy hisoblar tizimi – iqtisodiy statistikaning uslubiy negizi**

Milliy hisoblar tizimi haqida tushuncha. Iqtisodiy rivojlanish darajasini va dinamikasini xarakterlaydigan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar tizimi. Milliy hisoblar tizimi hisoblamalari tasnifi va ularni tuzish tamoyillari. Ishlab chiqarish hisoblamasining ko‘rsatkichlari va uning uslubiyati. Daromadlarni hosil bo‘lish hisoblamasining ko‘rsatkichlari va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Birlamchi daromadlar tushunchasi. Daromadlarni taqsimlash hisoblamasining ko‘rsatkichlari va uning o‘ziga xos uslubiyati. Yalpi ichki mahsulot – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi. Yalpi milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash. Mavjud milliy daromad. Sof milliy daromad. Mavjud milliy daromad va sof milliy daromadni hisoblash usullari. Tashqi dunyo bilan aloqalarini xarakterlaydigan tovar va xizmatlar hisoblamasini tuzishning o‘ziga xos xususiyatlari. Ayrim institusional sektorlar uchun tuziladigan hisoblamalarining o‘ziga xos xususiyatlari.

### **8-mavzu. Aholi statistikasi**

Aholi soni va tarkibini statistik o‘rganish. Doimiy va mavjud aholi soni, ular orasidagi bog‘lanish. Aholi sonini aniqlash, o‘rtacha aholi sonini hisoblash usullari. Aholi soni dinamikasi ko‘rsatkichlari. Aholini jinsi, millati, oilaviy holati, ma’lumotli darajasi va boshqa belgilar bo‘yicha o‘rganish. Aholini hududlar bo‘yicha joylashishi. Shahar va qishloq aholisi. Aholining tabiiy va mexanik harakati statistikasi. Aholining tabiiy va mexanik harakati haqida tushuncha. Aholining tabiiy harakatini ifodalovchi absolyut va nisbiy ko‘rsatkichlar: tug‘ilishi, vafot etishi, tabiiy o‘sishi. Tug‘ilish va vafot etishning umumiy va maxsus koeffitsiyentlari. Aholi migratsiyasi turlari. Aholi migratsiyasining absolyut va nisbiy ko‘rsatkichlari. Hozirgi kundagi aholi mexanik harakatining o‘ziga xos xususiyatlari. Nikohdan o‘tish va undan o‘chish ko‘rsatkichlari. O‘rtacha umr ko‘rish ko‘rsatkichi va kelajakdagagi aholi sonini hisoblash usullari. Aholi haqidagi statistik ma’lumot manbalari.

### **9-mavzu. Mehnat bozori statistikasi**

Iqtisodiy faol aholi tushunchasi. Uning soni va tarkibi. Bandlilik va ishsizlik statistikasi. Iqtisodiy nofaol aholi tushunchasi. Uning soni va tarkibi. Mehnat resurslari statistikasi. Mehnat resurslari sonini hisoblash usullari. Mehnat resurslari balansi. Uning sxemasi va ko‘rsatkichlar tizimi, uni tahlil qilishning asosiy yo‘nalishlari. Iqtisodiyotda band bo‘lganlarning faoliyat sohasi, mulk

formasi, xo‘jalik yuritish formasi va mamlakat hududlari bo‘yicha taqsimlanishini statistic o‘rganish. Korxona va tashkilotlarning xodimlarini asosiy va asosiy bo‘lмаган faoliyatları bo‘yicha taqsimlanishi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlardagi asosiy xodimlar kategoriyalari. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lgan xodimlar soni. Ro‘yxatdagi va ishga kelgan xodimlar soni. Smenalik koeffitsiyenti, smenalik rejimidan foydalanish statistikasi. Ish joyi va smenasidan to‘liq foydalanish ko‘rsatkichi. Ish vaqtini yo‘qotishlar.

### **10-mavzu. Milliy boylik statistikasi**

Milliy boylik va milliy mulk haqida tushuncha va bu sohadagi statistikaning vazifalari. Milliy boylik tarkibi. Milliy mulk va tabiiyresurslar tarkibi. Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy aktivlar tushunchasi va tarkibi. Aktiv va passivlar balansi. Tabiiy resurslar tarkibi. Yer fondini statistik o‘rganish. Foydali qazilma boyliklari, suv va gidroenergik resurslarni statistik o‘rganish. Milliy boylik elementlarini joriy va o‘zgarmas baholarda hisoblash va ular dinamikasini o‘rganish. Uskunalarining smenalik koeffitsiyenti. Ayrim tarmoq uskunalaridan foydalanish ko‘rsatkichlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Material aylanma mablag‘lar (aylanma fondlar, aylanma kapital) haqida tushuncha va bu sohada statistikaning vazifalari. Mahsulot, aylanma mablag‘lar hajmi va tarkibini statistik o‘rganish. Ulardan foydalanish darajasini tahlil qilish usullari. Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish xarajatlari mahsulot zaxiralari bilan ta’milanganlik darajasi. Material oborot mablag‘larining aylanish ko‘rsatkichlari.

### **11-mavzu. Yalpi ichki mahsulot statistikasi**

Yalpi ichki mahsulot hajmini hisoblash usullari. Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash. Yalpi ishlab chiqarish ko‘rsatkichini. Yalpi ichki mahsulotni taqsimlash usulida hisoblash. Yalpi ichki mahsulotni oxirgi foydalanish usulida hisoblash. Asosiy kapitalni yalpi jamg‘arish. Material aylanma mablag‘lar zahiralarining ortishi. Tovar va xizmatlarning sof eksporti. Nominal va real yalpi ichki mahsulot. Ayrim tarmoqlar mahsulotlari hajmini hisoblashning o‘ziga xos xususiyatlari.

### **12-mavzu. Milliy daromad va milliy hisoblar tizimidagi boshqa daromad ko‘rsatkichlari**

Dj Xiksning daromad haqidagi ta’limoti. Yangi MHTda Dj Xiksning ta’limotiga kiritilgan aniqliklar. Nominal va real daromad. Daromad hajmiga ta’sir etuvchi ekstensiv va intensiv omillar. Milliy daromadni taqsimlash, qayta taqsimlash va oxirgi foydalanish statistikasi. Yalpi milliy daromad, sof milliy mavjud daromad, yalpi milliy jamg‘arish, sof milliy jamg‘arish ko‘rsatkichlari statistikasi.

### **13-mavzu. Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi**

Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasining o‘rganish obyekti va ko‘rsatkichlar

tizimi. Mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Bojxona statistikasi – tashqi savdo statistikasining axborotlar bazasi. Eksport va importning ta'rifi. Eksport va importni hisoblashning umumiy va maxsus tizimi. Eksport va importni baholash. Tashqi savdo ko'rsatkichlari. Eksport hajmi, import hajmi, eksport va importni tovarlari va geografiyasi bo'yicha tarkibi, tashqi savdo oboroti, tashqi savdo qoldig'i. Tashqi iqtisodiy faoliyatni statistik o'rganish usullari. Tashqi savdo indekslari. Tashqi savdo shartlarini statistik tahlili. Tashqi savdo samaradorligi ko'rsatkichlari. Tashqi savdo holatini va xom-ashyo ta'minotini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

#### **14-mavzu. Moliya-kredit tizimi statistikasi**

Davlat byudjeti statistikasining vazifalari. Davlat byudjeti. Davlat byudjeti daromadlari va harajatlari tarkibi. Byudjet defitsitini moliyalashtirish manbalari. Byudjet daromadlari tarkibi. Byudjet harajatlari btarkibi. Bank statistikasining asosiy ko'rsatkichlari. Bank tizimi. Bank aktivlari va resurslari. Bank depozitlari. Pul muomalasi statistikasi. Pul muomalasini ifodalaydigan statistik ko'rsatkichlar tizimi. Pul massasi. Pul massasining aylanish tezligi. To'lov balansi.

#### **15-mavzu Aholi turmush darjasini statistikasi**

Aholi turmush darjasini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar tizimi. Milliy hisoblar tizimidagi aholi turmush darjasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Yalpi mavjud daromad va uy xo'jaliklarning mavjud tuzatish kiritilgan yalpi daromadlari, uy xo'jaliklarning oxirgi iste'moli va x.k. Uy ho'jaliklari byudjetini statistik kuzatish. Ijtimoiy infratuzilma statistikasining ko'rsatkichlari. Ijtimoiy soha tarmoqlari: ta'lim statistikasi, madaniyat va san'at, sog'liqni saqlash statistikasi, turmush, dam olish, jismoniy tarbiya va sport, ilm va yangiliklar, aholini turar joy bilan ta'minlash, turar joy va kommunal xizmatlar sifati, atrof muhit statistikasi, tabiiy resurslaridan foydalanishni statistic ko'rsatkichlari va ularda qo'llanadigan ko'rsatkichlar tizimi.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (fan bo'yicha laboratoriya ishlari va kurs ishlari mo'ljallanmagan)**

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Statistika faniga kirish, fanning predmeti va uslubi.
2. Statistik kuzatish uslubiyati, statistik jamlash va guruhlash.
3. Statistik jadval, grafiklar va ko'rsatkichlar.
4. O'rtacha miqdorlar va variatsiya ko'rsatkichlari.
5. Tanlanma kuzatish, korrelyatsion va regression tahlil.
6. Dinamikani statistik o'rganish usullari va iqtisodiy indekslar.
7. O'zbekiston milliy hisoblar tizimi – iqtisodiy statistikaning uslubiy negizi.
8. Aholi statistikasi.
9. Mehnat bozori statistikasi.
10. Milliy boylik statistikasi.
11. Yalpi ichki mahsulot statistikasi.

12. Milliy daromad va milliy hisoblar tizimidagi boshqa daromad ko'rsatkichlari.
13. Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi.
14. Moliya-kredit tizimi statistikasi.
15. Aholi turmush darajasi statistikasi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademguruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### **IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Statistika faniga kirish
2. Statistik ma'lumotlarni to'plash nazariyasi va amaliyoti
3. Statistik jamlash va guruhlash
4. Statistik ma'lumotlarni jadval va grafiklarda tasvirlash
5. Tasviriy statistika ko'rsatkichlari
6. O'rtacha miqdorlar
7. Statistikada variatsiyani baholash usullari va dispersion tahlil asoslari
8. Dispersiya. Dispersiyalar turlari
9. Statistik tadqiqotlarda tanlama kuzatishning qo'llanilishi
10. Tanlab kuzatish xatosi, tanlanma to'plam zaruriy miqdorini aniqlash va tanlab kuzatish natijalarini tarqatish yo'llari
11. O'zaro bog'lanishlarni statistik o'rGANISH
12. O'zaro bog'lanishlar zichligini statistik o'rGANISH
13. Dinamikani statistik o'rGANISH uslubiyati
14. Dinamika qatorlarida prognozlash
15. Iqtisodiy indekslar
16. Statistika amaliyotida iqtisodiy indekslarini qo'llash yo'nalishlari
17. Aholi statistikasi
18. Aholi harakatining statistik ko'rsatkichlari
19. Mehnat bozori statistikasi
20. Mehnat resurslari balansi
21. Milliy hisoblar tizimi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi
22. Yalpi ichki mahsulot hajmini hisoblash usullari
23. Milliy daromad statistikasi
24. Milliy boylik statistikasi
25. Asosiy va aylanma kapital statistikasi
26. Moliya bozori statistikasi
27. Pul muomalasi va kredit statistikasi
28. Sug'urta bozorini statistik o'rGANISH
29. Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi
30. To'lov balansi
31. Aholi turmush darajasi statistikasi
32. Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi

	Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan individual topshiriqlar variantlarini ishlab topshirishlari tavsiya etiladi.
3.	<p style="text-align: center;"><b>V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- statistik masalalarni yechish, statistik tasniflash va uning o’ziga xos xususiyatlarini talqin qilish haqida <b>tasavvurga ega bo‘lishi kerak; (bilim)</b></li> <li>- masalalar ustida statistik kuzatish tashkil etish, statistik jadval va grafiklarni tushunarli qilib tuzish, guruhash turlari, MHTning asosiy hisoblamalarini tuzish va ularning ko’rsatkichlarini aniqlash haqida <b>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko’nikma)</b></li> <li>- mutloq va nisbiy ko’rsatkichlarni bilish, o’rtacha miqdorlar va variatsiya ko’rsatkichlarini o’rganishi, milliy boylik hajmi va uning indeksini hisoblash, milliy daromadni taqsimlash usullarini <b>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko’nikma)</b></li> <li>- mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish darajasini ifodalovchi ko’rsatkichlarni tahlil qilish <b>ko’nikmalariga ega bo‘lishi kerak. (malaka)</b></li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma’ruzalar;</li> <li>- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;</li> <li>- esse, tezis va maqolalar yozish;</li> <li>- vaziyatli topshiriqlarni (keys-study) yechish;</li> <li>- jarayonli-yo’naltirilgan ta’lim;</li> <li>- muhokamalarda ishtirok etish;</li> <li>- kichik guruhlarda ishslash;</li> <li>- loyiha ishi bajarish;</li> <li>- mustaqil ishlarni bajarish;</li> <li>- taqdimot tayyorlash;</li> <li>- turli darajadagi testlarni yechish;</li> <li>- so’rovlар o’tkazish;</li> <li>- aholi ro’yxatlarini o’tkazishda ishtirok etish.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to’la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to’g’ri aks ettira olish, o’rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy hamda oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni topshirishi zarur.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. James T. McClave, Terry Sincich. Statistics. -12<sup>th</sup> ed. 2013. -814 p.</li> <li>2. Shodiyev X. va Xabibullayev I. Statistika: darslik. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. -454 b.</li> <li>3. Soatov N.M, Nabihev X, A.H Ayubjonov. Amaliy statistika: darslik. –T.:Iqtisodiyot. 2020.-298 b.</li> <li>4. Soatov N. Statistika. Darslik. –T.: Abu Ali Ibn Sino, 2003. -743 bet.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo’shimcha adabiyotlar</b></p>

	<p>5. Soatov N.M., Nabihev X., Ayubjonov A.H. Statistika. Darslik. –T.: TDIU, 2019. -815 bet.</p> <p>6. Shadiyev X.A., Habibullayev I., Rashitova N.X., Xo'jaqulov X.Dj., Qoraboyev A.R., Abdullayev S., Xodjayeva M.N., Ismoilov G'.I. "Statistika bo'uicha praktikum". –T.: "Iqtisod-moliya". 2015. 336 bet.</p> <p>7. Ayubjonov A.H., Mamatqulov B.X., Sayfullayev S.N. "Statistika fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'quv qo'llanma". –T.: TDIU, 2016. -180 bet.</p>
	<b>Axborot manbaalari</b>
	<p>8. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti.</p> <p>9. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.</p> <p>10. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p>
7.	<b>Fanning o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqilgan.</b>
8.	<b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b> R.I.Rashidov - "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasи v.b. dotsenti
9.	<b>Taqrizchilar:</b> S.Samiyev - QarMII, "Moliya" kafedrasи mudiri dotsenti, i.f.f.d. (PhD) S.R.Egamberdiyeva - QarMII, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasи dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi



